

“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” loyihaci to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

(2023 yil 1 yanvar holatiga)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 26 maydagi PQ–4731-son qaroriga muvofiq mazkur loyihani amalga oshirish natijasida:

loyihaning **birinchi bosqichida** (2017-2024 yy.) yiliga 65,0 mln tonna ma’dan qazib olinadigan kon, 60,0 mln tonna ma’danni qayta ishlovchi 3-Mis boyitish fabrikasi va fabrika infratuzilmasi hamda 650 megavatt quvvatli tashqi elektr ta’minoti quriladi.

Ikkinchi bosqichda, ya’ni 2024-2028 yillarda 400 ming tonna mis katodi, 40 tonna oltin va 270 tonna kumush ishlab chiqarilishiga erishiladi.

Uchinchi bosqichda 2030 yilga kelib 500 ming tonna mis katodi, 50 tonna oltin va 300 tonna kumush ishlab chiqarilishiga erishiladi.

I. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI

1. Yoshlik I koni bo‘yicha:

Yoshlik I konini o‘zlashtirish bo‘yicha ishlar jadal olib borilayapti. **2 smenada** ishlar tashkil etilgan.

Bugungi kunda obyektدا tog‘-kon ishlari olib borilmoqda, **1 733 nafar** ishchi-xodimlar va **400 dona** texnika ishlamoqda.

Bosh loyihachi “Giprosvetmet” AJ tomonidan bugungi kunga qadar loyihaning birinchi navbati bo‘yicha texnik-iqtisodiy ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Ishchi hujjat ishlab chiqilmoqda.

“Yoshlik I” ruda qatlamiga yetish va uni qazib olish maqsadida tuproq ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. 2023 yil 1 yanvar holatiga jami bajarilgan kon qazish ishlari hammasi bo‘lib **139 mln metr kubni** tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, konida vaqtinchalik temiryo‘llar va tashqi kommunikatsiyalarni qurish ishlari olib borilmoqda.

2. 3-Mis boyitish fabrikasi (MOF-3) bo‘yicha:

“UZTM-Karteks” va “Enter Engineering” kompaniyalari konsortsiumi hamda “Olmaliq KMK” AJ o‘rtasida 3-son Mis boyitish fabrikasini (3-MBF) qurib, “Tayyor holda topshirish” sharti bilan qiymati 2 mlrd. dollar bo‘lgan shartnoma tuzilgan.

Loyihalashtirish ishlariga “Wood” (Italiya), loyiha hujjatlarini texnik jihatdan baholash va qabul qilish uchun “Technip Energies” (Buyuk Britaniya) kompaniyalari jalb qilingan.

Loyiha doirasida 3 ming kishi uchun quruvchilar shaharchasi va direktsiya binolari qurilishi yakunlandi.

Bugunda obyektدا 3200 nafar quruvchi va 428ta texnika vositalari ishlamoqda.

Shuningdek, qoldiqlarni saqlash obyektlari bo'yicha zarur bo'lgan yer maydonlari ajratilib, bugungi kunda yer ishlari olib borilmoqda.

3. Suv ta'minoti obyektlarini qurish bo'yicha:

3-MBFning tashqi suv ta'minotining tashqi sxemasi tasdiqlandi.

Zarur bo'lgan yer maydonlari ajratilib, chegaralar aniqlandi.

Hozirda "O'zbekgidrogeologiya" DUK tomonidan suv zaxiralarini tasdiqlash maqsadida qidiruv ishlari olib borilmoqda.

"O'zgeorangmetLITI" instituti tomonidan jami ishchi hujjat ishlab chiqilmoqda.

4. Elektr ta'minot bo'yicha:

"Yoshlik-1" konining tashqi elektr ta'minoti obyektlarini qurish bo'yicha tanlov o'tkazilib, "O'zelektroapparat-Electroshield" kompaniyasi bilan shartnoma imzolangan.

Ayni paytda **10 km** 500 kVli elektr liniyasining metall ustunlari to'liq o'rnatilib, **7,5 km** qismiga sim tortildi.

Shuningdek, asosiy uskunalarni yetkazib berish **97 foizga** bajarildi, montaj ishlari olib borilmoqda.

7 dona 500/100 transformatorlar o'rnatildi.

Nimstansiya binosini qurilish ishlari olib borilmoqda.